


ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**

Nocturne No. 20 in C Sharp Minor, Op. posth

Frédéric François Chopin

Vincent

**FRIDERIK SHOPEN**  
(1810-1849)**NOYABR**  
**№46**

CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
8-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-8**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хўмидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масбулдири.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

<b>1. Xolmurodova Baxtigul Ismoilovna</b>	
BOSHLANG'ICH ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH	
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH .....	7
<b>2. Жўраева Нилуфар Мавлоновна, Файратова Гули Сухроб қизи</b>	
МАҲМУД ҚОШГАРИЙНИНГ “ДЕВОНУ ЛУФОТИТ ТУРК” АСАРИНИ ИЛМИЙ	
ЎРГАНИШ ВА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ .....	9
<b>3. Dilshodova Nilufar Dilshod qizi, Abdurahmonova Latofat Shuhrat qizi</b>	
IVAN SERGEYEVICH TURGENEVNING “OTALAR VA BOLALAR” ASARIDAGI IKKI	
QARAMA-QARSHILIK .....	11
<b>4. Obidova Nafisa Odiljon qizi</b>	
BADIY TALQINDA PSIXOLOGIK TAHLIL.....	12
<b>5. Vafoqulova Go'zal Ochilovna</b>	
ADABIYOT DARSLARIDA JAHON OTIN UVAYSIY LIRIKASINI O'QITISH .....	14



## АДАБИЁТ

### BOSHLANG'ICH ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Xolmurodova Baxtigul Ismoilovna,**  
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani  
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon:+998 938338105

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich talim o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini boyitishda ona tili darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish misollar asosida ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixologik xususiyatlar, adabiy ta'lif, savol-topshiriqlar, ertak, Zumrad, Qimmat, o'gay ona, sehrgar, boylik, siyladi, fojea, ajdar, hayot, maqollar.

Bugungi kunda insoniyat erishgan ilm-fan sohasidagi barcha yutuqlari va taraqqiyotning asosiy manbayi ijodkorlikdir. Atrofimizga diqqat bilan nazar solsak, oddiy sanoq cho'plaridan boshlab, eng murakkab fazo kemalarigacha – insonning ijodiy fikrlashi va kashfiyotlarining mahsuli ekanligini ko'ramiz.

Ijod qilish deganda yangilikni izlash, topish va yaratish jarayoni tushuniladi. Maktab ta'limalda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bolaning shaxsi, ma'nnaviy-ruhiy qiyofasi shakllana boshlaydi va rivojlanishi jadallashadi. Shu sababli, boshlang'ich sinflarda bolaga ta'lif-tarbiya berish bilan bir vaqtida uni ijodiy fikrlashga o'rgatib, odatlantirib borish o'qituvchi zimmasidagi vazifadir. Ijodiy fikrlash uchun faqat aqliy salohiyatning o'zi yetarli emas. Uni amalga oshirish uchun qobiliyat, xarakter, temperament, hissiyot, tasavvur, diqqat, xotira, ehtiyoj kabi psixologik xususiyatlar ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'lif bolaga nutqiy savodxonligini shakllantirish bilan bir vaqtida uni ijodiy fikrlashga o'rgatadi. O'qish darslari o'qilgan asarning matni badiiy tahlil qilinsa, o'quvchida yuqoridaq psixologik xususiyatlar shakllanadi, yuzaga chiqadi. Badiiy asar tahlilida savol-topshiriqlar ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Savol-topshiriqlar ustida ishlash jarayonida o'quvchilar ijodiy fikrlaydi, izlanadi. Savol-topshiriqlar bilan ishlash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni qahramonlarning nutqi, xarakteri, bir-biriga munosabatiga qiziqtirib, ularni asar mazmunida yashiringan fikrlarni aniqlashga, ma'nosini chaqish va ularni o'zlashtirib olishga undashi darkor.

Ma'lumki, 2-sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligida “Zumrad va Qimmat” ertagi o'tiladi. Quyida ushbu ertak yuzasidan savol-topshiriqlar ustida ishlash orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish yuzasidan o'z fikr-mulohazalarimni bayon qilaman.

1. Zumrad aslida kim?

-U bir o'gay ona qo'lida so'kish, qarg'ish eshitib bir burda nonga muhtoj bo'lib yurgan qizcha.

2. Qimmat kim?

-Kampirning arzanda qizi.

3. Zumradga nega gullar, o't-o'lanlar, bulbullar quvonib kutib oladi, unga qo'shiqlar aytib berishadi?

-Chunki Zumrad otasini, odamlarni yaxshi ko'radi, hayvonlarni, tabiatni, maysa-yu o'tloqni sevadi, ularni avaylaydi. Hammasiga muloyim boqib, qo'li bilan silab-siyopalab erkelaydi.

4. Kampir nega Zumraddan qutulmoqchi bo'lib, cholga Zumradni o'rmonga adashtirib kelishni buyurdi?

-Buning sababi kampirning arzandasini Qimmatni shu gullar sevmas, uni erkalamas ekalamaydi. Bu hol kampirga alam qiladi.

5. Nima sababdan gullar, qushlar Qimmatni sevmaydi?

-Qimmat gullarga ozor berar, ularni yulib tashlab, tepkilar ekan, lolalar, gullar Qimmatning



kelishini bilib qolsalar, qovoqlarini solib, yumilib qolarkanlar. Yovuz kampir bundan g'azablanar ekan va buni Zumraddan ko'rар ekan.

6. Sehrgar nega Zumradga tengsiz boylik berdi?

- Zumrad halol-pokligi, shirin so'zligi, mehnatkashligi, kattani hurmat qilishi, kichikni e'zozlashi bilan sehrgarning muhabbatini qozonadi. Shu sababli sehrgar Zumradni tengsiz boylik bilan siylaydi, uni baxtiyor qiladi.

7. Qimmat bilan onasining fojeasiga nima sabab bo'ldi?

- Qimmatning tarbiyasizligi, odobsizligi, ishyoqmasligi, dangasaligi, kekkaygan- ligi, qo'rs-qo'polligi va o'gay onaning yovuzligi, mehr-oqibatsizligi, rahmsizligi ularning boshiga yetadi. Bunday o'zboshimcha qizni va farzandiga to'g'ri tarbiya bera olmagan onani ajdar yutib yuboradi.

8. Bolalar, ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

- Hayotda Qimmat qiyofasiga tushib qolmaslik uchun odobli, xushmuomala bo'lish, kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'lish, mehnatni sevish, tabiat olamini asrab-avaylash, ko'proq dars tayyorlash, kitob o'qish kerak.

O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ertakdan olgan xulosalarini “Qissadan hissa” shaklida maqollar aytishlarini tashkil etish lozim.

Ya'ni, o'quvchilar yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlikni va ishyoqmasliik, odoblilik va beodoblilik haqida maqollardan misollar keltiradi.

Ushbu keltirilgan maqollar birgalikda tahlil qilinadi. Eng mazmunli, yaxshi maqollar topgan, faol ishtirok etgan o'quvchilar o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi .

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ertak mazmuni va g'oyasi asosida bunday savol va topshiriqlar ustida ishslash o'quvchilarda ertakni tushinish hamda anglash ko'nikmalarini shakllantirishda, o'qish savodxonligini oshirishda, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda yaxshi samara beradi. Bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat olib borishlari esa ta'lim samaradorligini oshirishga, yurtimiz sha'nini munosib himoya qiladigan barkamol insonni tarbiya- lashda ulkan xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2-sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi” T. RTM. 2021-yil.
2. Rivojlantiruvchi ta'lif texnologiyalari. RTM, 2016-yil.
3. “O'qish madaniyatini oshirish” ilmiy-amaliy seminari materiallari 2018-y.
4. [www. Markaz.tdi.uz](http://www.Markaz.tdi.uz)



## МАҲМУД ҚОШҒАРИЙНИНГ “ДЕВОНУ ЛУҒОТИТ ТУРК” АСАРИНИ ИЛМИЙ ЎРГАНИШ ВА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Жўраева Нилуфар Мавлоновна  
Самарқанд туман 2-ИДУМ ўқитувчиси  
Ғайратова Гули Суҳроб қизи  
Самарқанд туман 36-умумий  
ўрта таълим мактаби ўқитувчиси  
zafargayratov94@gmail.com

**Аннотация.** Ушбу мақолада XI асрнинг буюк мутафаккир олими Маҳмуд Кошғарийнинг лингвистик меъроси – “Девону луготит турк” асари ва унда ўз давридаги туркий тилларнинг лексик, фонетик, грамматик соҳаларини ўрганишга доир фикр-мулоҳазаларининг моҳияти, аҳамияти ҳақида ва асосан фонетик билимiga хос илмий-амалий ҳамда назарий қарашлари қисқача таҳлил этилади.

**Калит сўзлар:** “ишбў”, “имола”, “ишмом”, “ғунна”, “хашум”, “муҳмад”, товуш, ҳарф, фонема.

Маҳмуд Кошғарий биргина “Девону луготит турк” асари билан жаҳон тилшунослиги тцивилизациясига ўзининг муносаби ҳиссасини қўшган ва туркий халқлар маънавий-маданий меросининг минг йиллар аввалги даражасини илмий-амалий жиҳатдан таҳлил қила олган, туркий лингвистика тарихида ўчмас из қолдирган буюк қомусий олим ҳисобланади.

Унинг “Девону луготит турк” асарида XI асрда милодий аср бошларида яшаган туркий қавмлар фойдаланган тил ва унга хос бадиий, лугавий бирликлар қиёсий метод асосида талқин этилган. Бошқача айтганда, бу асар лексикографик, яъни оддий луғат эмас, балки қадим-қадимдан Ўрта Осиёда яшаган туркий қавмлар тилида истеъмолда бўлган сўзларнинг маъновий ва функционал-стилистиқ, фонетик, грамматик хусусиятларини ўзида мужассам этган лингвистик асар ҳамдир. Шунчаки, лингвистик асар эмас, балки умумтуркий тилшуносликда тил назарияси ва қиёсий-тарихий методнинг юзага келишига илк асос, илдиз бўлган илмий-амалий манба ҳам ҳисобланади.

“Девону луготит турк” асарига бўлган муносабатнинг иккинчи босқичида уни илмий тадқиқ этиш билан боғлиқ ишлар амалга оширилган. Бу борада олиб борилган ва олиб борилаётган ишлар кўламини дунё миқёсида белгилаш мумкин. Зеро Ўзбекистонлик олим Ж.Худойбердиев хайрли бир ишга кўл уриб, Маҳмуд Кошғарий ва унинг девони тадқиқига бағищланган тадқиқотлар юзасидан қузатишлар олиб борган, унинг натижаси ўлароқ «Маҳмуд Кошғарий хаёти ва «Девону луготит турк» асарининг ўрганилиши» асарини ҳамда “Маҳмуд Кошғарий хаёти ва “Девону луготит турк” бўйича яратилган асарлар кўрсаткичи” номли муҳим илмий оммабоб рисоласини чоп килган. Хусусан, “Маҳмуд Кошғарий хаёти ва “Девону луготит турк” бўйича яратилган асарлар кўрсаткичи” китобида Маҳмуд Кошғарий фаолияти билан боғлиқ 1800 га яқин юзага келган ишлар рўйхати келтирилган. “Кўрсаткич”да келтирилган маълумотларда бўйича қуйидагича статистик рақамлар ҳавола этилган: энг кўп амалга оширилган тадқиқотлар турк тилида 501 та, рус тилида 393 та, ўзбек тилида 309 та, озарбайжон тилида 164 та, туркман тилида 147, инглиз тилида 126 тани ташкил этади.

Зеро, Маҳмуд Кошғарий, ўз даври даражасида энг аввало, фонетика соҳасида ҳам юқсак билимга эга бўлган олим сифатида қимматли назарий фикрларини билдира олган. Энг аҳамиятлиси шундаки, олимнинг мазкур соҳага доир ғоялари, назариялари, қарашлари ҳозирги туркийшунослик ва ўзбекшунослик фонетикасида ўз қимматини йўқотганича йўқ. Бу масала қуйидагилар билан асосланади:

Биринчидан, Маҳмуд Кошғарий туркийшуносликда илк бор нутқ товушларнинг фонемалик мезонини сеза олган ва ўзига хос фикрлари билан белгилаган [“ишбў” – товушларнинг қаттиқ ва юмшоқлик талаффузи, “имола” - чўзиқ талаффузи, “ишмом” юмшоқ ёки ингичка талаффузи, “ғунна” – нг[ŋ] каби бирикма товушлар, “хашум” – бурун, думоғ товушлар, “муҳмад” – истеъмолдан чиққан товушлар [сўзлар] ва х. [МҚ. И, 45-50-бб.]. Олим фонема билан вариант орасидаги чегарани сезган. Нутқ аъзоларининг нутқ товушларини ҳосил қилишдаги ҳолатини кўрсатган. Нутқ товушларини нутқ аъзоларининг ҳолатига ва



ҳаракатига қараб гурухлаштирган. Демак, олим фонема ва ҳарф муносабатини ҳам туркйшунослиқда маълум даражада илк бор белгилаган.

Иккинчидан, тил билми билан шуғулланган олимлар орфография ва орфоепия масаласи фонетиканинг ғоят муаммоли нуктаси деб билганлар. Шунинг учун фонетика билан шуғулланган олимларнинг аксарияти уни четлаб ўтмайдилар. Бу масалага ҳам улар бевосита ёки билвосита ўз муносабатини билдириб ўтганлар. Гарчи Маҳмуд Қошғарий ҳам ўз асарида ёзув масаласига маҳсус бўлим ажратмаган бўлса-да, бу соҳага ўз муносабатини билдирган. Энг эътиборлиси, орфография масаласидаги муаммоларни орфоепия билан боғлаб шарҳлайдики, бундай усул орфографиядаги айрим назарий жиҳатларни эчишда манбанинг ёрдами катта эканлигини кўринади.

Учинчидан, Маҳмуд Қошғарий туркйшунослиқда илк бор товушни маҳсус кузатди, уларни илмий жиҳатдан ўрганади. Товушларнинг комбинатсия натижасидаги мавқеларини акустик ва физиологик ҳолатларини белгилайди. Олим фонетикага доир жуда кўп янгиликлар очди, бу соҳани янги-янги қоидалар билан бойитди. Олим унлилларни белгилаш, хусусан, ундошлар ва уларнинг жарангли ва жарангсиз каби фарқини ажратар экан, улардаги кенглик ва торлик, чўзиқлик ва қисқалик ҳолатларидағи қонуниятларни очади. Товушлардаги ана шу хусусиятларни асос қилиб, муаллиф туркий тиллардаги умумийлик ва улар орасидаги хусусийликни белгилайди.

Тўртингидан, Маҳмуд Қошғарий эътирофича, фонетик жараён ғоят кўп ҳолатлар билан боғлиқ. Шунинг учун уни изчил ва тўғри талқин қилиш ҳам унга катта имконият яратади. Олим ундан шу мақсадларда фойдаланган. Чунончи, у фонетик жараёнларнинг кўп ҳолатда сўзлар этимологиясини аниқлашга ёрдам беришини ҳам қайд этади. “Девону луғотит турк”да Маҳмуд Қошғарий шу усул орқали жуда кўп сўзларнинг этимологиясини белгилайди. Бу албатта, ҳозирги умумтуркология ва ўзбек тилшунослиги учун сўзлар этимологиясини аниқлаш, хусусан, этимологик луғатлар тузиш йўлида ғоят аҳамиятлидир. Девондаги мисоллар милодгача ва милодий VI асрлар тилини эслатади: *арқади-алқади* [МК.И-том, 28-бет], “*ирра – изза – уялиши* [МК.1-том, 74-бет], *азнади* [МК.И-том, 234-бет] - *айниди, кедин-кейин* [МК.1-том, 230-бет] *азғир-айғир* [МК.1-том, 121-бет], *азри-айри* [МК.1-том, 146-бет], *азаклиг- оёқли* [МК.1-том, 167-бет] каби мисолларда милодгача ва милодий аср бошларида мавжуд бўлган “*r > з; r > л, д > з, з > й* ва *х*. фонетик хусусиятлар кузатилади. Бундай маълумотларни ўша давр қабила-уруг тилларини қиёсланишида янада аниқ кузатиш мумкин: “*Яғмо, тухси, қипчоқ, ябаку, татар, қайжумул ва ўғузлар ҳар вақт “з”ни сўзда “й”* (ёйга) *айлантирадилар ва ҳеч маҳал “д”* [dз] билан сўзламайдилар. Чунончи улардан бошқалар *қайин* дараҳтини *қадзий* десалар, бу қабилалавр *қайин* дейилар.... чигилларда *“д”* [dз] билан айтиладиган сўзлар яғмо, тухси, ўғуз ва Чинга қадар чўзилган эрларда яшовчи баъзи аргуларда “*й*” [ёй] билан алмашади. Румгача бўлган қипчоқ ва бошқа қабилаларда бу ҳарф “*з*”га айлантирилadi... хўтаниклар... баъзан “*з*” ҳарфини “*л*” алмаштирадилар [МК.И-том, 68-бет].

Туркий тилларда ундошлар жуфтлиги, ундош товушларнинг жуфт ҳолда қатор келиши ёки келмаслиги ҳакида туркология ва ўзбек тилшунослигига хилма-хил фикрлар мавжуд. Айрим олимлар ундош товушларнинг такрорланиб келганлигини тан олмасалар, айримлар уни чўзиқ ундошлар деб атаганлар. Баъзилар уни бошқа тилларнинг таъсири сифатида кўрсатишган.

Хуллас, Маҳмуд Кошғарининг нафақат ўзбек тилшунослигига, балки умумтуркологияда фонетикага доир назарий фикрлари ҳалигача мукаммал ўрганилган эмас. Юқорида қайд этилган қисқача назарий-тавсифий фикрларни давом эттириш мумкин, албатта. Аммо буни биргина маъруза ёки мақолада батафсил талқин этиб бўлмайди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Маҳмуд Кошғарий. “Девону луғотит турк”(С.Муталибовнинг ўзбек тилидаги таржимаси ва нашрининг, 1,2,3-томлари). -Т.: 1960-1963.
2. Худойбердиев Ж. Маҳмуд Қошғарий ҳаёти ва «Девону луғотит турк» асарининг ўрганилиши. – Тошкент, “Фан”, 2010, (-48 б.).
3. Хулойбердиев Ж. Маҳмуд Кошғарий ҳаёти ва “Девону луғотит турк” бўйича яратилган асарлар кўсаткичи.- Т.: “Академнашр”, 2011 (-158 б.).



IVAN SERGEYEVICH TURGENEVNING “OTALAR VA BOLALAR” ASARIDAGI  
IKKI QARAMA-QARSHILIK

Dilshodova Nilufar Dilshod qizi

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani 2- umumiyo o’rtalim  
maktabining rus tili va adabiyoti o’qituvchisi  
+99893 439 94 29

Abdurahmonova Latofat Shuhrat qizi

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 2-umumiyo o’rtalim  
maktabining rus tili va adabiyoti o’qituvchisi  
+99893 423 71 11

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Otalar va bolalar” azzridagi salbiy va ijobiy obrazlar;  
ularning taqdiri, asar syujeti va kompozitsiyasi, tugun va yechim haqida mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** obraz, syujet, komponent, nigelizm, sotsiolist, “otalar”, “bolalar”.

Rus yozuvchilari o’zlarining adabiy asarlariga turli yo’llar bilan sarlavha qo’yishadi. Ba’zilari bosh qahramonning nomini, ba’zilari asarning bosh g’oyasini sarlavhaga ko’chiradi.

Turgenevning “Otalar va bolalar” romanining nomi asar g’oyasini ifodalaydi. Unda asarning asosiy konflikti mavjud bo’lib, unda ikki komponent – oilaviy va mafkuraviy komponent yoritilgan. Yozuvchi roman qahramonlarini ikki guruhga ajratadi: “Otalar” o’tmisg’oyalar bilan yashaydigan keksa avlod vakillari va kelajakka intilayotgan “bolalar” – yoshlar. Bu ikki guruh qahramonlari bir- biriga qarama-qarshidir. Romandagi “otalar” aka-uka Kirsanovlar: Nikolay Petrovich va Pavel Petrovich. Yumshoq va xushmuomala Nekolay Petrovich qishloqda sokin oilaviy baxtdan baxramand bo’lib, xotirjam yashaydi. U she’riyatni yaxshi ko’radi va o’g’lining do’sti Bazarovning nazarida kulgili ko’rinadigan violonchel chaladi. Pavel Petrovich akasiga umuman o’xshamaydi. Bu sobiq sotsiolist to’plarda porlagan harbiy xizmatchi, qishloqda akasi bilan o’tmisni eslab yashaydi. Qishloqda yashasa-da, did bilan kiyinadi. Yosh avlod “bolalar” romanda, birinchi navbatda, do’sti Arkadiy bilan qishloqqa kelgan Yevgeniy Bazarov tomonidan tasvirlangan. Bazarov – nigelist. U faqat foydali narsaga ishonadi, qolgan hamma narsani, jumladan, she’riyatni, san’atni, sevgini, e’tiqodni inkor etadi. “Rafael bir tiyinga ham arzimaydi”, - deydi Bazarov. U faqat so’zlarni shamlarga tashlaydigan zamонавиј aristokratiyadan nafratlanadi.

Mafkuraviy qarama-qarshilik Pavel Petrovich va Bazarov o’rtasidagi tortishuvlarda aniq namoyon bo’ladi. O’sha paytda Rossiyada urfga aylangan nigelizm an’anaviy dunyoqarash bilan to’qnash keladi. Turgenevning zamonaviy tanqidi bu bahslarda liberallar (aka-uka Kirsanovlar) va inqilobiy demokratlar (Bazarov) o’rtasidagi to’qnashuvni ko’rdi. Garchi bu o’g’zaki bahslarda g’alaba Bazarovga tegishli bo’lsa-da, uning ustunligi bir necha bahslarga sabab bo’ladi. Pavel Petrovich ham odamlarning avlodlari tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlarga ishora qilib o’zining haqligini isbotlashga harakat qiladi. Bu ikki obraz ayrim xususiyatlari bilan bir-biriga o’xshaydi. Ikkalasi ham mag’rur, o’ziga ishongan, takabbur.

Oila dramasi g’oyalar to’qnashuvidan ko’ra chuqurroq va muhimroq bo’lib chiqdi. Bu ikki avlod – “Otalar” va “Bolalar” ning abadiy qarama-qarshiligidan iborat. Keksalar ham doim tajribali va ehtiyyotkorroq. Ular yoshlik ideallari bilan yashaydi, ularni yosh avlodga singdirishga harakat qiladi. Shuning uchun Pavel Petrovich o’z printsiplarini qat’iyat bilan himoya qiladi. “Bolalar” – yoshlar esa har doim “otalar”ning inertsiyasini qoralab, yangi va ilg’or narsaga intilishadi. Yaxshi hamki, “otalar” va “bolalar” o’rtasidagi qarama-qarshilik vaqtinchalik. Turgenev esa ularni ajratmaydi, balki asar nomidagi “va” birlashmasi bilan ularni bog’laydi. Asar yakunida xasta Bazarovga ota-onasi g’amxo’rlik qilishadi. Arkadiy oila qurdi. Bazarov sevgi tuyg’usini boshdan kechirgan holda, o’zining bag’ritosh va ruhsiz inson ekanligiga amin bo’ldi. “Bolalar” muqarrar ravishda “otalarga” ergashishini, ota-onalar yo’lini takrorlashini kitobxon roman so’ngida tushunib yetadi.

**Foydalilanlgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. D. I . Forvizin “O’sish”
2. L. N. Tolstoy “ Urush va tinchlik”
3. I. S. Turgenev “Otalar va bolalar”
4. D. Qur'onov “Badiiy asar tahlili”



## BADIY TALQINDA PSIXOLOGIK TAHLIL

**Obidova Nafisa Odiljon qizi**

Navoiy davlat pedagogika instituti

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti

E-mail:xsr.uz@bk.ru

+99897 086 7073

**Annotatsiya.** Maqolada badiiy psixologizm, uning mohiyati haqida so`z boradi. Badiiy psixologizmning kelib chiqishi adabiyot inson obrazini tasvirlay boshlagan davrlarga borib taqaladi. G`arb adabiyotshunosligida bu hodisa psixopoetika deb ataladi. Zamonaviy dunyo adabiyotshunosligida badiiy adabiyotni psixopoetik nuqtai nazardan tahli va talqin qiluvchi bir qancha nazariy qarashlar usul va metodlar ishlab chiqilganligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar.** Badiiy psixologizm, ruhiyat, psixologik tahlil, psixoanaliz, badiiy obraz, xarakter.

Badiiy asar insoniyat tarixining qaysi qatlamini tasvirlamasin, uni birinchi galda inson sifatidagi o`y-fikrlari bilan yoritishi lozim. Badiiy ijodning o`ziga jalb etuvchi jihatlaridan biri, uning inson ichki olamidagi qorong`u va mavhum tilsimlarni ochish qobilyatidir. U qalbda kechadigan jarayonlarni shu qadar aniq –oydin ifoda etadiki, boshqa bir fan ahli bunga qodir bo`lgani yo`q.

“Uzoq davom etib kelayotgan tarixiy adabiy hayotda, – deydi A.B.Yesin, - psixologizmning sirli, ammo samarali jihatlaridan biri, ijodkor inson qalbi haqida so`zlay turib, har bir o`quvchi bilan uning o`zi haqida gaplashayotgandek bo`ladi”.

Psixologizm – bu badiiy asarning uslubiy tasnifi bo`lib, u orqali personajlarning ichki dunyosi chuqur va mufassal bayon etiladi. Ko`zga ko`rinmaydigan, qo`lga ilashmaydigan hissiyotlar, fikrlar, tuyg`ular qiyofa kasb etadi go`yo. Psixologizmni birinchilardan bo`lib adabiy hodisa sifatida fanga olib kirgan va unga adabiy uslub deb izoh bergen N.G.Chernishevskiy va L.N. Tolstoyning dastlabki hikoyalarini o`qish asnosida shunday xulosaga kelingan.

Psixologik tahlil badiiy hodisa bo`lib, ijodiy talantning kamoloti darajasini, uning ta`sir doirasini belgilovchi sifat belgisidir. Inson ruhiyatining tahlili, uni chuqur tushunish mahorati – adabiyotning tub mohiyatini belgilovchi sifat darajasiga ko`tarilishi birdaniga yuz bermagan .Adabiyotning turli rivojlanish bosqichlarida bu muammo turlicha tushunilgan. Jumladan, Aristotelning “Poetika” asarida qayd qilinishicha, badiiy asarning asosiy belgisi – tashqi hodisalarning tasviridir, xarakter esa tashqi hodisalar tasviridan keyingi vositadir. O`zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidida “psixologizm” va “psixologik tahlil” terminlari farqlanmay ishlataladi. Ammo psixologizm psixologik tahlil tushunchasiga nisbatan keng bo`lib, u o`zida bevosita avtorning psixologiyasini ham qamrab oladi. Psixologik tahlil esa inson psixikasi jarayonlarini, uning fikr va hissiyotidagi turli-tuman ohanglar rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik prinsipda ochuvchi estetik kategoriyadir. Hayotda bo`lganidek adabiyotda ham odam o`zining individual psixologik xususiyati bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu xarakter tushunchasi bilan bog`liqdir. Adabiyotda badiiy xarakter – bu individual belgilarni o`z ichiga olgan holda ma`lum bir ijtimoiy sharoitda paydo bo`lgan, ijtimoiy ma`no kasb qilgan iroda yo`nalishi va bu iroda yo`nalishining asardagi badiiy ifodasidan iboratdir. Faqat ijtimoiy sharoit asosida yuzaga chiqqan shaxs irodasi xarakterning asarda badiiy va g`oyavi asosini ta`min etadi. Psixologizm atamasi psixologik tahlil, psixologik tasvir, psixologik obraz, psixologik roman, psixologik hikoya va psixologiya kabi atamalar bilan bog`liq. Adabiyotda psixologizmning rivojlanish tarixini tafsiflab, adabiyotshunos olim L.Ya.Ginzburg “mavjud adabiy janrlarda psixologik yangiliklar endigina nish urayotgan bir vaqtida, badiiy adabiyotning yondosh janrlari bo`lmish – rasoil, kundaliklar, memuarlar va avtobiografik janrlarda psixologizm allaqachon o`rnashib bo`lgan edi” deb yozadi. Badiiy adabiyotda asarning g`oyaviy – estetik ahamiyatini personajlar xarakteri ochib bersa, personaj xarakterining yozuvchi tomonidan ochib berilishi psixologik tahlil vositasi hisoblanadi. Badiiy asarda asosiy urg`u qahramon ichki olami, botiniy hayoti, o`y-kechinmalariga qaratilmagan bo`lsa, u holda har qanday obraz xarakteri ham badiiy psixologizm namunasi bo`la olmaydi. Chunki, “psixologizm” – adabiy asar badiyyatining asosiy, ammo yagona bo`lmagan mezoni hisoblanib, “psixologizm” – agar badiiy asar uchun



botinan zarur bo‘lsagina, u asarning yutug‘i bo‘la oladi. Badiiy psixologizm tushunchasi bilan psixologik tahlil yoki psixologik tasvir kabi tushunchalarning o‘zaro aloqasi bor-ki, olimlar va tadqiqotchilar o‘rtasida baxsli xolatlarni yuzaga keltiradi. Ammo bu savollar nazariy jihatdan bugunga qadar ochiq qolmoqda. Ayrim tadqiqotchilar bu terminlarga aniqlik kirlitsalar, boshqa guruh olimlar bu nazariyani chetlab o‘tishga harakat qiladi. Badiiy asar psixologik darajasini belgilashda adabiy tur va janrlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, lirika – inson qalbi va ichki his-tuyg‘ulari kuychisi ekanligi ma'lum, demak u bevosita ruhiyat tasviri bilan bog‘liq holda shoир psixologiyasi va ichki olamini tarannum etadi. Dramatik turda ruhiyatni tasvirlash dinamik prinsip asosiga qurilishi haqida yuqorida batafsил to‘xtalib o‘tgan edik.

Epos – inson ruhiyatini tasvirlashning xilma-xil vositalari, usullaridan iborat keng imkoniyatlarga ega. Epik turda lirika va dramadagi barcha usul va vositalar o‘ziga xos ravishda sintezlashadi. Yozuvchi lirkadagi singari o‘z qahramonining ichki dunyosidan turib ham, qahramonning o‘z nutqi vositasida ham, tashqi xarakteristika va holatlar tasviri orqali ham ruhiyat dunyosiga daxl qilaveradi. Ayni paytda badiiy psixologizmdan foydalanish epik tur janrlariaro ham farqli xususiyatlarga ega. Epik janrlar orasida hikoya, xususan psixologik hikoyaning o‘rni bugungi kun adabiy jarayonlarida yetakchilik qilmoqda.

Hikoya – hayotning kichik bir parchasini aks ettirganidan, epizodik tarzda unda bir yoki bir necha hayotiy voqeа qalamga olinganidan bu janrda qahramon ruhiy dunyosi izchil ravishda batafsил yoritish, “qalb dialektikasi”ni chuqur va to‘liq ohib berish yozuvchidan katta mahorat va iste’dod talab qiladi. Roman va qissa kabi katta yoki o‘rta hajmdagi nasriy asarlarda qahramon xarakteri, uning ruhiyati, botiniy hayoti va ichki kechinmalarini ohib berish uchun yozuvchida imkoniyat va vaqt ko‘proq bo‘ladi. Epik janrlar orasida hikoya, xususan psixologik hikoyaning o‘rni bugungi kun adabiy jarayonlarida yetakchilik qilmoqda. Hikoya – hayotning kichik bir parchasini aks ettirganidan, epizodik tarzda unda bir yoki bir necha hayotiy voqeа qalamga olinganidan bu janrda qahramon ruhiy dunyosi izchil ravishda batafsил yoritish, “qalb dialektikasi”ni chuqur va to‘liq ohib berish yozuvchidan katta mahorat va iste’dod talab qiladi. Roman va qissa kabi katta yoki o‘rta hajmdagi nasriy asarlarda qaxramon xarakteri, uning ruhiyati, botiniy hayoti va ichki kechinmalarini ohib berish uchun yozuvchida imkoniyat va vaqt ko‘proq bo‘ladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Imomova G. Psixologik iztiroblar: Ruhiyat tasvirida dialog va monolog. – Toshkent.: “Yozuvchi”, 1992. 21 b.
2. Yo’ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi.-Toshkent.: “Fan”, 2008. -158 b.
3. Yo’ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 152 b.
4. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 533 b.
5. Mirqosimova M., Rustamova M. Janr va mahorat. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. – 69 b.
6. Mirzaev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2005. – 418 b. 38.
7. Nazarov B. O‘zbek adabiyoti tanqidchiligi. – Toshkent: Fan, 1979. – 284 b.



## ADABIYOT DARSLARIDA JAHON OTIN UVAYSIY LIRIKASINI O'QITISH

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti  
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Jahon Otin Uvaysiy lirikasining tarbiyaviy ahamiyati va shoira ijodini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** «Shahzoda Hasan», «Shahzoda Husan», liroepik asar, ga'azal, muxammas, musaddas, murabba, chiston, doston.

Uvaysiy to'rt devon tuzganligi ma'lum. Lekin bu devonlarning asl qo'lyozmalari topilmagan. Uvaysiy mumtoz o'zbek she'riyatining barcha janrlarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliy va boshqaning asarlariga muxammaslar bog'lagan. Shoiraning adabiy merosida 269 g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba, chiston, 3 doston, tugallanmagan bir manzuma bor. Uvaysiy o'z asarlarida yuksak odamiylikni, shu odamiylikni qalb to'rida avaylovchi vafodor yorni ulug'laydi, uni Quyosh bilan qiyos qiladi. Uvaysiy hayotlik davridayoq nafis lirikasi bilan mashhur bo'lgan va zamondoshlarining e'tiborini qozongan. Lirik she'rлaridan tashqari, uning «Shahzoda Hasan», «Shahzoda Husan» kabi liroepik asarlari va «Voqeoti Muhammad Alixon» kabi tarixiy dostonlari mavjud. Shoiraning liroepik dostonlari islom tarixi bilan bog'liq voqealar asosida yaratilgan.

Oltmis yildan koproq umr ko'rgan Uvaysiydan bizga kattagina adabiy meros yetib kelgan. Uvaysiyning Navoiy, Fuzuliy gazallariga bog'lagan ko'plab muxammaslari va naziralari, Bedil she'lariiga izdoshligi shoiraning poetik balog'atidan dalolat beradi.

Zaboningni keturgil ey shakarlab toti guftora,

Nechukkim marhamat o'lsun necha mendek dil afgora .

Uvaysiyning lirik she'rлaridan tashqari "Shahzoda Hasan", "Shahzoda Husan" kabi liro –epik asari va "Voqeoti Muhammad Alixon" kabi tarixiy dostonlari mavjud. Shoiraning liro –epik dostonlari islom tarixi bilan bog'liq voqealar asosida yaratilgan bo'lib, bu Uvaysiy oz davrining –otini muallimasi va dinimiz tarixidan dalolat beradi. Uning zamondoshi va izdoshi shoira Dilshodi Barno o'zining Nodirabegimga bag'ishlangan "**Tong mahal chiqdi haramdin turfa moh**" deb boshlangan g'azalida Nodira bilan bir qatorda Uvaysiyni ham juda katta e'zoz bilan xotirlaydi :

Kim?- dedim,Nodira –dedilar ani,  
Yonida Vaysiy turur olampanoh .  
Har biri ming shoira o'rnidadur,  
Ikkovi birla to'lur har borgoh .


Uvaysiy ozining go'zal va maftunkor, latif g'azallari bilan nafaqat o'z davrining, balki hozirgi kunda ham muxlislar qalbiga bitmas-tuganmas zavq bag'ishlab kelmoqda





### Ifodali o`qish

Uvaysiyning quyidagi g`azallarini o`qib, mazmunini lug`at asosida ozlashtirish: “Uvaysiyman”, “Sog`indim”, “Ko`ngil dog` o`ldi, dog` o`ldi”, “Nozuk”,  
“Mavzuning klasterli taqdimoti”



### Toifalash jadvali

Jahon Otin Uvaysiyning ijodi		
G`azallari	Dostonlari	Chistonlari
“Uvaysiyman”	“Shahzoda Hasan”	“Anor”
“Ko`ngul dog` o`ldi”	“Shahzoda Husan”	“Yong`oq”
“Nozuk”	“Voqeoti Muhammadalixon”	“Kun va tun”
“Sog`indim”		“Qaychi”

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. “Adabiyot” (B.Qosimov va boshqalar) 10-sinf . Toshkent. 2004-yil.
2. B.To`xliyev “Adabiyot” (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik) Toshkent, “O’qituvchi”, 2002-yil.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ**

**Масъул мұхаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусақҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000